



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 512-519 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIGA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMINI JORIY QILISHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI



Kadirov Abdumalik Matkarimovich,
Farg'ona Politehnika instituti
Email: abdumalik.kadirov@ferpi.uz

Xakimova Oydinaxon Abdulxamidovna
Farg'ona Politehnika instituti
1-bosqich magistanti

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik sanoati korxonalariga innovatsion boshqaruvini joriy qilishda xorijiy tajribalar o'rganilgan. Ushbu xorijiy tajribalarning Yaponiya, AQSh, Xitoy, Turkiya, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarining to'qimachilik sohasidagi tajribalari o'rganilgan. Xorijiy tajribalarga tayangan holda mamlakatning to'qimachilik sanoati korxonalariga innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish bo'yicha taklif va tavsilar ishlab chiqilgan. Shuningdek xorijiy davlatlarning to'qimachilik sanoatini rivojlanish tendensiyalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion boshqaruv, joriy tajribalar, avtomatlashtirish, sotuvni yaxshilash, sifat, eksport, klaster, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье рассмотрен зарубежный опыт внедрения инновационного менеджмента на предприятиях текстильной промышленности. Изучен опыт зарубежных стран в сфере текстиля Японии, США, Китая, Турции, Германии и скандинавских стран. С опорой на зарубежный опыт разработаны предложения и рекомендации по внедрению инновационной системы управления на предприятиях текстильной промышленности страны.

Ключевые слова: innovatsion boshqaruv, joriy tajribalar, avtomatlashtirish, sotuvni yaxshilash, sifat, eksport, klaster, innovatsiya.

Annotation. This article examines foreign experience in implementing innovative management in textile industry enterprises. The experience of foreign countries in the textile industry was studied: Japan, the USA, China, Turkey, Germany and the Scandinavian countries. Based on foreign experience, proposals and recommendations have been developed for the introduction of an innovative management system in the country's textile industry enterprises. Trends in the development of the textile industry in foreign countries are also presented.

Key words: innovative management, current experiences, automation, sales improvement, quality, export, cluster, innovation.

Kirish. Respublikada keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari (keyingi o'rinlarda to'qimachilik mahsuloti deb yuritiladi) ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini (keyingi o'rinlarda to'qimachilik sanoati deb yuritiladi) rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi.

Jahonda mamlakatlar iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini tavsiflovchi "Biznes sofistikasi", jumladan, "bilim va innovatsiyalarni uzatish bo'yicha Shvetsiya (1\2), AQSh (2\3), Shveysariya (4\1) kabi mamlakatlar yetakchi o'rinlarni egallagan holda, mazkur mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot hisobiga YaIMning 70 foizdan ortiq qismi yaratiladi". Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish va ularning global raqobatbardoshligi darajasini yaxshilashda ilm -fan yutuqlarini amaliyotga muntazam joriy etishga qaratilgan innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-sonli Farmoni asosida mamlakatning to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yanada yaxshilashga qaratilgan. Ushbu me'yoriy xujjat asosida to'qimachilik sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, shuningdek mazkurs tarmoq korxonalarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda to'qimachilik sohasidagi korxonalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagicha

1. Korxonalarining iqtisodiy ulushni oshirish. Bu yo'nalish orqali to'qimachilik mahsulotlarining hajmi va sifatini oshirish hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga yo'naltirish belgilangan.

2. Boshqaruvni takomillashtirish tizimi asosida to'qimachilik tarmoq korxonalari va ularning rivojlanishiga ko'mak beruvchi ilg'or menejment texnologiyalarini joriy etish ko'zda tutilgan.

3. Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asosida to'qimachilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro talab va standartlarga muvofiq ishlab chiqarilishi uchun laboratoriyalarni modernizatsiya qilish va akkreditatsiyadan o'tkazish nazarda tutilgan.

4. Klaster modelini joriy qilish asosida mahalliy ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oluvchi klaster modelini joriy etish belgilangan.

5. To'qimachilik tarmoqlariga innovatsion texnologiyalar joriy etish orqali ushbu sohaga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini orib kirish va tarmoqni

avtomatlashtirish belgilangan. Ushbu mexanizmlar asosida O'zbekistonda to'qimachilik tarmog'ining xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishni ko'zlaydi

To'qimachilik sanoatida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish avvalambor, to'qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish va tahlil qilish hamda shu asosda O'zbekiston to'qimachilik sanoati rivojlanishi uchun qo'llash mumkin bo'lgan taklif va tavsiyalar tayyorlashni talab etadi. Ma'lumki, bugungi kunda to'qimachilik sanoati rivojlangan davlatlar asosan Xitoy, Germaniya va Turkiya hisoblanadi. Ushbu davlatlarning har biri nafaqat jahon bozorida o'z o'rnini topish, balki ushbu mavqeni uzoq vaqt mobaynida saqlab turish va mustahkamlash imkoniyatini beruvchi milliy strategiyalarga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Тўқимачилик саноатида innovatsion faoliyat muammolarining muhim amaliy ahamiyati mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarining tadqiqot ishlarida asosan boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Sanoat tarmoqlarida innovatsion muammolar sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim ijobiy xususiyati iqtisodiy tizimlarni boshqarishning turli darajalarida ilmiy ishlanmalarning to'planishi hisoblanadi. Xususan, Ferreyra J. bir guruh olimlar bilan Portugaliya sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi oshishida boshqaruvdagi kreativlik va innovatsion yondashuv muhim o'rin tutishini aniqlashgan[7]. Ulardan farqliroq, J. Utterbek va F. Suareslar mamlakat sanoat tarmog'i tarkibining shakllanishi va rivojlanishini ko'p jihatdan yangi texnologiyalar vujudga kelishi bilan bog'lashgan. Ularning fikricha, biror bir sohada yangi texnologiya paydo bo'lishi ushbu tarmoqning raqobatbardoshligi oshishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi[11]. Turkiyalik iqtisodchi olimlar ham turkiy avtomobilsozlik tarmog'ida o'tkazgan tadqiqotlarida ham tarmoqdagi korxonalar raqobatbardoshligiga texnologik innovatsiyaning ijobiy ta'sirini notexnologik innovatsiyalar (tashkiliy va marketing) esa sezilarli ta'siri yo'qligini aniqlashgan[10]. B.Baxtiyorov maqolasida Markaziy Osiyo mamlakatlari sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvining hozirgi holati tahlil etilib Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekiston sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvining rivojlanish tendensiyalari qiyosiy taqqoslangan va mavjud muammolar aniqlangan [9]. Ablakulov K. mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

To'qimachilik sanoati korxonalariga innovatsion boshqaruv tizimini joriy qilishda tadqiqotning nazariy va uslubiy jihatlari va ularning davlat boshqaruv tizimining joriy qilishda xorijiy davlat tajribalari hamda etakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ishlari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Hukumat qarorlari, qonun hujjatlaridan foydalanilgan..

Tahlil va natijalar.

Innovatsion boshqaruv tizimini joriy qilishda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish zamonaviy korxonalar uchun muhim strategiyalardan biridir. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlar innovatsion boshqaruv tizimlarini

joriy qilishda ilg'or tajribaga ega bo'lib, ularning usullari va yondashuvlari ko'pgina boshqa mamlakatlar tomonidan namuna sifatida qabul qilingan. Quyida ba'zi mamlakatlar tajribasiga asosiy jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

1. AQSh tajribasi: Innovatsion boshqaruv tizimi joriy qilishda startap madaniyatini rivojlantirish va riskga yo'naltirilgan yondashuv bilan mashhur. AQSh kompaniyalari, ayniqsa, texnologiya gigantlari (masalan, Google, Amazon) innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash uchun inkubator va akseleratorlarni keng joriy qilishadi. Shuningdek, AQSh kompaniyalari xodimlarning kreativlik va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun qulay ish muhitini yaratishga katta e'tibor beradi.

2. Yaponiya tajribasi: Yaponiya innovatsion boshqaruvda Kaizen (uzluksiz takomillashtirish) tamoyilini qo'llaydi. Ushbu yondashuv yordamida kompaniyalar texnologiyalar va jarayonlarni doimiy ravishda yaxshilab borishadi. Bundan tashqari, Yaponiya korxonalarini ilg'or robototexnika va avtomatlashtirish texnologiyalaridan keng foydalanib, samaradorlikni oshiradi.

3. Germaniya tajribasi : Germaniyada innovatsiyalar asosan sanoatga yo'naltirilgan va "Industrie 4.0" strategiyasi orqali ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlik keng rivojlangan bo'lib, ilmiy-tadqiqot ishlari uchun davlat tomonidan moliyaviy yordam va grantlar ajratiladi. To'qimachilik sanoati, xususan kiyim ishlab chiqarish Germaniya iqtisodiyotining eng qadimiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi rivojlangan va qulay jug'rofik holatga ega bo'lgan aholi zich joylashgan mintaqalar – ham talab (yirik bozor sig'imi), ham taklif (qulay transport infratuzilma va asosiy bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan mehnat resurslari nisbatan ko'p bo'lgan mintaqalar) jihatidan to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun asos bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan Germaniya to'qimachilik sanoatida iqtisodiy o'sish boshlangan. Ushbu davrni talabning o'sishi bilan tavsiflash mumkin, talabni moliyaviy imkoniyatlar yetarli bo'lmaganligi tufayli import hisobiga qondirish iloji bo'lmagan. 1960 yil o'rtalariga kelib, tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni muhim texnologik o'zgarishlar sababli asta-sekin kamaya boshladi, bu esa kapital sig'imining oshishi va bozorlarning mustahkamlanishi muhitida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va samaradorlikni o'sishiga olib keldi. Bundan tashqari, bu davrda xalqaro bozorlar tomonidan raqobat tobora ko'chaya boshladi, bu ham tarmoqning o'zaro munosabatlari va tarkibini o'zgartirdi

4. Janubiy Koreya tajribasi: Koreyada davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Janubiy Koreyada texnoparklar va maxsus innovatsion zonalar tashkil etilgan bo'lib, bu joylarda texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va yangi g'oyalarni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, yirik kompaniyalar (Samsung, LG) kichik korxonalar bilan yaqin hamkorlikda ishlashadi va ularning rivojlanishiga ko'maklashishadi.

5. Xitoy tajribasi. 1970 yil oxirida Xitoy hukumati tomonidan jahon iqtisodiyotiga jadal integratsiyalashuvi bo'yicha iqtisodiy islohotlarning olib borilishi natijasida Xitoy jahon to'qimachilik sanoatining eng yirik o'yinchisiga aylandi. Uzoq vaqt davomida Xitoyni to'qimachilik va kiyim eksport qilish hajmi keskin o'sib borgan. Agar 1980 yilda jahon to'qimachilik eksportida Xitoy mahsulotlarining ulushi 4,62 %ni, jahon kiyim

eksportida esa – 4 % tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilga kelib, bu ko'rsatkichlar mos ravishda 17,17 % va 23,97 %ga oshgan[3]. Xitoyda tahminan 80 % to'qimachilik mahsulotlar qirg'oq bo'yida joylashgan provinsiyalarda klaster ko'rinishdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda, mahsulotni iste'mol qilishda esa, Yanszi, Marvaridli ko'llar qirg'og'i va Boxal ko'rfazi atrofidagi hududlar muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda davlatning ichki provinsiyalarida ham to'qimachilik mahsulotlari va kiyimga bo'lgan talab asta-sekin oshib bormoqda[4]. Xitoyning to'qimachilik sanoati rivojlangan yetakchi davlatlarga intilishi bir nechta bosqichlarga bo'linadi, har bir bosqichda tarmoqning o'sishiga davlatlararo turli xil ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar hamda tartibga solish dastaglari muhim ta'sir ko'rsatgan. Xitoyda innovatsion boshqaruv tizimi davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanadi. Raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish (Big Data) sohalarida jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Davlat tomonidan texnologiya kompaniyalariga subsidiya va soliq imtiyozlari berish orqali innovatsiyalarni joriy qilish rag'batlantiriladi.

Ushbu davlatlar tajribasini o'rganish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali innovatsion boshqaruv tizimini samarali joriy qilish mumkin. Har bir mamlakatning o'ziga xos yondashuvi mavjud bo'lib, ular kompaniyalar uchun innovatsiyalarni joriy qilishda ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

6. Skandinaviya mamlakatlari tajribalari. Shvetsiya, Daniya va Finlyandiya kabi mamlakatlar ekologik toza innovatsiyalarga katta e'tibor qaratadi. Bu davlatlar barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalar orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga qaratilgan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, davlat tomonidan innovatsion tadqiqotlarga sarmoya kiritish, ta'lim tizimiga e'tibor berish va biznesni qo'llab-quvvatlash orqali barqaror innovatsion muhit yaratilgan.

7. Turkiya tajribasi. Turkiya dunyoda kiyim eksport qiluvchi davlatlar orasida beshinchi o'rinni va Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilishda ikkinchi o'rinni egallaydi. U jahon to'qimachilik sanoatining eng yirik ishtirokchisi bo'lib, uning roli yildan-yilga oshib bormoqda. Turkiyada to'qimachilik sanoati shakllanish tarixi uzoq o'tmishga –Osmoniylik imperiyasiga taqaladi, ushbu davrda, ya'ni XVI-XVII asrlarda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish juda yaxshi rivojlangan va keng tarqalgan edi. Imperiya tarqalgandan keyin Turkiya hukumati bu tarmoqni strategik muhim tarmoqlar qatoriga kiritgan holda proteksionizm va davlat ko'magi ostida izchillik bilan rivojlantirgan. Natijada, 1923 yildan boshlab, to'qimachilik sanoatida davlat korxonalari faol ravishda tashkil etilmoqda va katta hajmda investitsiyalar jalb qilinmoqda. 1960 yillardan boshlab, Turkiya to'qimachilik sanoati o'z mahsulotlarini eksport qila boshladi, biroq 1970 yilga kelib, eksport tarkibida to'qimachilik sanoatining ulushi 3 %dan oshmadi[8]. 1980 yillarda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni boshlanishi va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish milliy strategiyasiga o'tish sharoitida mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonini jadallashtirish siyosatini amalga oshirib, o'z rivojlanishida quyidagi ikki bosqichni bosib o'tgan: 1980 yillardan 2000 yillargacha va 2000 yillar boshidan to hozirgi kungacha.

Turkiyada to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali raqobatbardoshligini oshirmoqda. Turkiya to'qimachilik korxonalari texnologik yangiliklarni qo'llash, ishlab

chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali xalqaro bozorga chiqa olish darajasiga yetmoqda. Turkiya to'qimachilik korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimi haqida asosiy yo'nalishlari:

1. Avtomatlashtirish va raqamlashtirish: To'qimachilik korxonalarini innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etishda texnologik yangiliklarga katta e'tibor qaratmoqda. Zamonaviy dasturlar va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali samaradorlik oshirilmoqda. Masalan, raqamli to'qimachilik texnologiyalari yordamida maxsus naqshlar va dizaynlarni yaratish tezlashdi. Shuningdek, ishlab chiqarishda texnologik liniyalarni avtomatlashtirish bilan inson omilini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmoqda.

2. Raqamli boshqaruv tizimlari (ERP va IoT texnologiyalari): Ko'plab yirik to'qimachilik kompaniyalari ishlab chiqarishni boshqarish va optimallashtirish uchun ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy qilmoqda. Bu tizimlar yordamida materiallar ta'minoti, ishlab chiqarish, logistika va sotuv jarayonlari yagona platformada boshqariladi. Bunga qo'shimcha ravishda, IoT (Internet of Things) texnologiyalari bilan har bir ishlab chiqarish bosqichini kuzatish va ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilish imkoniyati yaratilgan.

3. Ekologik barqarorlik va yashil texnologiyalar: Turkiyada to'qimachilik korxonalarini ekologik barqarorlikka katta e'tibor bermoqda. Yashil texnologiyalar yordamida energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish va suvdan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirishga harakat qilinmoqda. Masalan, qayta ishlangan tolalar va ekologik toza kimyoviy moddalar ishlatilishi orqali mahsulotlarning ekologik xavfsizligi ta'minlanmoqda. Bu esa korxonalariga ekologik jihatdan mas'uliyatli kompaniya imidjini yaratishga yordam beradi.

4. Innovatsion materiallar va mahsulot dizayni: Turkiyaning to'qimachilik sanoati innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha izlanishlar olib bormoqda. Masalan, antibakterial, olovga chidamli yoki ultrabinafsha nurlardan himoya qiluvchi maxsus matolar ishlab chiqarilmoqda. Ushbu mahsulotlar tibbiyot, sport, turizm va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi va Turkiyaning to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni oshiradi.

5. R&D faoliyatiga e'tibor: Innovatsion boshqaruv tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ilmiy-tadqiqot va tajriba (R&D) faoliyatiga bog'liq. Turkiya to'qimachilik korxonalarini R&D faoliyatini rivojlantirish uchun maxsus markazlar va laboratoriyalar tashkil qilgan. Shu markazlarda yangi mato turlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va dizayn uslublari ustida tadqiqotlar olib boriladi. Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot faoliyatiga subsidiya va grantlar berilishi ham korxonalarini innovatsiyalarga sarmoya kiritishga rag'batlantiradi.

6. Xalqaro hamkorlik va texnologiya transferi: Turkiyaning to'qimachilik kompaniyalari xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik qilib, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishga intilmoqda. Yevropa va Osiyo davlatlari bilan hamkorlik orqali texnologiya transferi amalga oshirilmoqda. Bu orqali turk korxonalarini zamonaviy jihozlar va texnologiyalarni o'z ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etmoqda.

7. Kadrlar malakasini oshirish: Innovatsion boshqaruv tizimini samarali joriy qilish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash muhimdir. To'qimachilik sanoati uchun

xodimlarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash va malakasini oshirish dasturlari tashkil etilgan. Bunga qo'shimcha ravishda, to'qimachilik sohasida oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik qilib, malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Turkiyada to'qimachilik korxonalarini innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etishda raqamli texnologiyalar, ekologik barqarorlik va xalqaro hamkorlikka tayanmoqda. Bu esa Turkiyaga jahon bozorida raqobatbardoshlikni saqlash va yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi.

Xulosa. Yuqorida tahlil qilingan xorijiy davlatlar tajribasidan O'zbekiston sharoitida foydalanish mumkin bo'lgan asosiy jihatlari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat. Birinchidan, To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar modeli so'nggi 10-12 yil mobaynida o'zining ijobiy jihatlari ko'rsatdi. Bu nafaqat O'zbekiston uchun, balki boshqa bir qator rivojlanayotgan davlatlar uchun ham universal model sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Jumladan, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash borasida ayrim dastaklar, ya'ni soliqqa tortish tizimi, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish tizimi, bojxona-tarif yig'imlaridan ozod etish va subsidiyalash, shuningdek maxsus jamg'armalarning tashkil etilganligi va boshqalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Shu jumladan, davlatning jahon miqyosida tarmoq manfaatlarini himoyalashda faol ishtirok etishi milliy ishlab chiqaruvchilar mavqeini mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-sonli Farmoni
2. Осипенко Н. (2008). Формирование качества текстильных материалов. Стандартизация, сертификация, качество. 2008. № 5. С.52-56..
3. Song H. (2006). Global Quota System and China's Textile and Clothing Industry. *China & World Economy*. 2006. Vol. 14 (5). P.78-92.
4. The Chinese Market for Clothing (2012). International Trade Center. Geneva: ITC. P.2.
5. Zhang Y., Wang T. (2010). Profitability and Productivity of the Chinese Textile Industry. *China & World Economy*. 2010. Vol. 18 (5). P.1-21.
6. Stewart T. (2007). China's Support Programs for Selected Industries: Textile and Apparel. Trade Lawyers Advisory Group LLC. June, 2007. P.2.
7. Ferreira J., Coelho A. Dynamic capabilities, innovation and branding capabilities and their impact on competitive advantage and SME's performance in Portugal: the moderating effects of entrepreneurial orientation //International Journal of Innovation Science. – 2020. – Т. 12. – №. 3. – С. 255-286.
8. Аблакулов К. (2022). Широкое использование научно-технического прогресса и инновационных факторов для увеличения прибавочной продукции. *Экономика и образование*, 24(1), 89–94. Извлечено из <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/918>
9. Baxtiyorov B. Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekistonda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi amaliyotining qiyosiy tahlili //Iqtisodiyot va

innovatsion texnologiyalar. – 2022. – T. 10. – №. 3. – S. 95-104

10. Atalay M., Anafarta N., Sarvan F. The relationship between innovation and firm performance: An empirical evidence from Turkish automotive supplier industry //Procedia-social and behavioral sciences. – 2013. – T. 75. – C. 226-235.

11. Utterback J. M., Suárez F. F. Innovation, competition, and industry structure //Research policy. – 1993. – T. 22. – №. 1. – S. 1-21.

12. Global Innovation Index 2021: Tracking Innovation through the Covid-19 Crisis / World Intellectual Property Organization, 2021. – p. 226.
https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2021.pdf

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

